

## 69. Soat va minut

Yondosh mavzu:  
Mil (strelka)li soatlar

Soat, minutlar



$$\begin{array}{l} \text{Soat} + \text{Soat} + \text{Soat} = ? \\ \text{Soat} + \text{Soat} + \text{Soat} = 11 \\ \text{Soat} + 1 = ? + 2 \end{array}$$

1. Soatni ko'rib chiqing.

- a) Qisqa mil – soat mili. Unga tegishli sonlar doira ichida ko'rsatilgan.  
Hozir soat necha?
- b) Uzun mil – minut mili. Unga tegishli sonlar doira tashqarisida ko'rsatilgan. Ularni aytинг. Barcha sonlar ko'rsatilganmi?
- d) Agar minut milii to'liq aylansa, soat mili o'z holatini qanday o'zgartiradi?



Minut mili 60 minutda to'liq aylanadi.  
Bu vaqt ichida soat mili 1 bo'linmaga siljiydi.

$$\begin{aligned} 1 \text{ soat} &= 60 \text{ minut} \\ 1 \text{ h} &= 60 \text{ min} \end{aligned}$$

2. Bu soatlarda soat nechani ko'rsatyapti?



3. Minut mili necha minutni ko'rsatyapti? Beshtalab sanang.





**Vaqtni bilish uchun:**

- 1) sonlar bo'yicha necha to'liq soat o'tganligi;
- 2) bo'limlar bo'yicha necha minut o'tganligi aniqlanadi.

**Soat 6 dan 20 minut o'tdi deyiladi.**


**6 h 20 min yoki 6:20 ko'rinishda yoziladi.**



- 4. Soatlar qanday vaqt ni ko'rsatyapti?**



- 5. Lola sonli nurni chizdi va unga maktabda bo'lgan vaqtini belgilab qo'ydi. U mакtabga soat nechada keladi? Soat nechada uyiga qaytadi?**



Siz o'z chizmangizni chizing va mакtabda qancha vaqt o'tkazishingizni ko'rsating.



- 6. Soatlar qaysi vaqt ni ko'rsatayotganini yozing.**



- 7. Shved olimi Karl Linney har xil gullar turli vaqtarda ochilib yopilishini payqadi. Momaqaymoq soat 6 da ochiladi va soat 17 da yopiladi. Namatak ertalab soat 5 da ochiladi va soat 19 da yopiladi. Qaysi gul uzoqroq ochilib turadi? Yechimni sonli nur yordamida ko'rsating.**